

MODERNIZM: ONG OQIMI VA YANGI BADIYY TAFAKKUR

Uralova Gulhayo Bahodir qizi

O‘zRFA, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada XX asr adabiyotida modernizmning shakllanishi, asosiy xususiyatlari va namoyandalari tahlil qilinadi. “Ong oqimi”, ramzlarning ko‘p ma’nohiligi va qahramonning ichki dunyosini tasvirlash modernizmning asosiy belgisi sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Modernizm, “ong oqimi”, ramz, psixologizm, XX asr adabiyoti, Jeyms Joys, Virjiniya Vulf, Frans Kafka, Marsel Prust, Oldos Haksli.

Annotation: The article analyzes the emergence, main features, and representatives of modernism in 20th-century literature. The stream of consciousness technique, the multiplicity of symbols, and the depiction of the protagonist’s inner world are highlighted as key characteristics of modernism.

Key words: Modernism, stream of consciousness, symbol, psychologism, 20th-century literature, James Joyce, Virginia Woolf, Franz Kafka, Marcel Proust, Aldous Huxley.

Modernizm adabiyotining paydo bo‘lishi va gurkirab-yashnashi butun Yevropa adabiyoti, madaniyati tarixi takomilida sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur adabiyot XX asrda jamiyatning ruhiy kayfiyatini, jamoaviy “ongsiz” likni to‘g‘ri idrok etishni, tushunish va anglash jarayoni shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Modernizm adabiyotining taraqqiyot omillari san’atning boshqa turlari – tasviriy san’at, musiqa, haykaltaroshlik bilan o‘zaro uzviy bog‘liq holda muntazam aloqada, falsafa, psixologiya yutuqlari va kashfiyotlariga e’tibor qaratgan holda sodir bo‘ladi. Modern yozuvchilarni qahramonning botiniy ehtiyoji, uning kechinmalari dunyosi, atrof-muhitni idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda hissiy ong asosidagi harakatlar birlashtiradi. Qahramon nutqi, fikri, taassurot va xotiralar harakati "ong oqimi" yordamida uzatiladi. Ong ishini va his-tuyg‘ular harakatini uzatish usullarini o‘zlashtirishga qiziqishni faqat modernizmning o‘ziga xos xususiyati deb hisoblash noo‘rindek. Mazkur o‘ziga xoslik turli davr klassiklarining asarlarida – Shekspir, Gyote, Stendal, Tolstoy ijodida o‘zini namoyon qildi. Tolstoyning e’tiborini, birinchi o‘rinda, ba’zi his-tuyg‘ular va fikrlar boshqalaridan qay tarzda shiddat bilan rivojlanishi tortgan; uning ijodini boshdan oyoq kuzatuvchanlik va sinchkovlik asosiga qurilgan.

Ma'lum bir vaziyat yoki taassurotdan to'g'ridan-to'g'ri paydo bo'lgan tuyg'u qanday qilib xotira ta'siriga va tasavvur bilan ifodalangan kombinatsiyalar kuchiga bog'liq bo'lib, boshqa his-tuyg'ularga o'tadi, yana oldingi boshlang'ich nuqtasiga qaytadi, yana va yana o'zgarib turadi. Yaxlit butunlikka ega xotiralar zanjiri... Graf Tolstoyni, eng avvalo, psixologik jarayonning o'zi, uning shakllari, qonunlari, qalb dialektikasi qiziqtiradi"¹ Ingliz adabiyotida modernizmning boshida Virjiniya Vulf, Devid Gerbert Lourens; she'riyatda anglo-amerikalik shoir Tomas Eliot she'rlari modernizmning o'lhagichi sifatida tan olingan. Irlandiyalik Jeyms Joysning "Uliss" romani, uning zamondoshi Virjiniya Vulf asr boshidagi yosh modernistlar orasida "eng diqqatga sazovor" deb atagan, modernizmni ifodalovchi san'at ensiklopediyasi sifatida qabul qilingan. Jeyms Joys Prust va Kafka jahon adabiyotshunosligida "modernizm adabiyotining otalari" hisoblanadi. Marsel Prustning "Yo'qotilgan vaqtni qidirib", Jeyms Joysning "Uliss" va Frans Kafkaning "Jarayon" romanlari modernizm adabiyotining durdona asarlari qatoridan o'rin egallagan. Modernizmning gullagan davri 1920- yilga to'g'ri keladi. Uning asosiy vazifasi - inson ongi va ongsizligining sarhadlariga kirib borish, xotira ishini, atrof-muhitni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlarini, o'tmish, hozirgi "mavjudlik lahzalari" va kelajak qanday aks etishini botiniy sezimlar orqali yetkazishdan iborat.

Modernizm asoschilari asarlarining tub mohiyati bu- "ong oqimi" bo'lib, u fikrlar, taassurotlar va his-tuyg'ularning harakatini ushlashga imkon beradi. Badiiy adabiyotdagi "ong oqimi" degan tushuncha yozuvchining hikoya qilish uslubida ko'rinadi. "Ong oqimi" tushunchasini dastlab amerikalik ruhshunos Uilyam Jeymsning "Psixologiya asoslari" nomli tadqiqotida ko'tarilgan.² "Ong oqimi" Jeyms Joysning "Uliss" nomli ko'pdan-ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'lgan romanida yaqqol namoyon bo'ladi. Yung kitobni boshdan-oyoq pessimistik, chinakam modern adabiyoti yozuvchilari kitobni o'qigach, do'zax azobiga teng zerikishni boshidan kechirmaydi, aksincha, ruhiyatida yangilanish paydo bo'ladi, deya izohlaydi.

Shaxsning shaxssizlashishi, mustaqil ongning vujudga kelishini to'laligicha ifodalay olgan roman Yungni o'zi odatlanmagan zo'riqishlarga duchor etgani, mulohazali, vazmin ruhshunos sifatida nom qozongan odamni mazkur roman qay ahvolga solganidan romanning qiymati qanchalar baland ekanligini, Joyscha tafakkur portlovchi kuchining teran ildizlari nimalarga qodirligi haqida tasavvur paydo bo'ladi. Karl Yung "Uliss" romani tahlili jarayonida "tan olishni istamay tan

¹ Чернышевский Н. Г. Полн. собр. соч. — М., 1947. — Т. 3. — С. 422—423

² Джеймс У. Поток сознания Психология-М.: Педагогика, 1991. -С.54-80

olish” metodidan foydalangan. Modernist yozuvchilar ijodkorning vazifalarini tushunishni borliqning asosiy qonunlarini har tomonlama tasvirlash shakllariga intilish, ehtiroslar, impulslar, g‘ayratlar, instinktlarning abadiy o‘zaro ta’siri bilan hayotning "universalini" yaratish istagi bilan bog‘laydi. XX asr Angliya modernizm adabiyotida Oldor Haksli ijodi ham o‘ziga xos asarlari bilan “intellektual roman” janriga asos soldi. Yozuvchi o‘z romanlarini “g‘oyaviy roman” deb ataydi. Sababi, birinchi jahon urushidan keyin tinch, biroq tashvishlarga to‘la hayotga qaytgan ingliz intelligensiyasi namoyondalari asrning taqdiri, odamlarning qismati, jamiyatning kelgusi rivoji qaysi yo‘ldan borishi xususida havotirga tushdilar. Hakslining mashhur “Kontrapunkt” asari romanida realistlik va modernistik tamoyillar vobastalashganini kuzatamiz.³

Modernizm adabiyotining nomi o‘zi uchun gapiradi: mavjud an’anani inkor etib mutlaq yangi an’anaga asos solish mualliflar ijodining gultojiga aylanadi. Ramz-ko‘p ma’noga ega bo‘lgan adabiy tasvir. Modern asar talqini odatda kontekstga va o‘quvchining shaxsiy idrokiga bog‘liq. Aynan ramzlarning ko‘p ma’noliligi hamda qahramon “men”i modernist yozuvchilar ishini jumboqli va sirli qiladi. Ularning asarlarida muallif nimani nazarda tutganini, qanday pozitsiyani egallaganini, nimani aytmoqchi bo‘lganini hech qachon aniq ayta olmaymiz. Bundan tashqari, modernistik asar tag zamirida ratsionallik va obyektivlik yo‘q: dunyo faqat tuyg‘ular va hislar prizmasi orqali ko‘rinadi. Bu dunyo haqiqiy emas - balki undan yuqori, ideal. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda modernizm bilan bog‘liq tushunchalar, uning vujudga kelish omillari va o‘zak muammolari dunyo adabiyotshunosligining eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Чернышевский Н. Г. Полн. собр. соч. — М., 1947. — Т. 3. — С. 422—423
2. Джеймс У. Поток сознания Психология-М.: Педагогика, 1991. -С.54-80
3. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014

³ Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014